

RAQAMLI MULK FUQAROLIK HUQUQIY MUNOSABAT OBYEKTI BO'LA OLADIMI?

Zokirova Sabina Yoqubjon qizi,

Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va inson huquqlari yo'nalishi talabasi
e-mail: yakubjanovna7@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada raqamli mulkning huquqiy tabiatini aniqlash, uning fuqarolik huquqi obyekt sifatida tan olinishi masalalari tahlil qilinadi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, kripto-aktivlar, NFTlar, metaversiya obyektlari, domen nomlari va boshqa raqamli aktivlarning ko'payishi milliy va xalqaro huquq tizimlarida yangi yondashuvlar zaruratini tug'dirayotgani ko'rsatib o'tiladi. Muallif Qozog'iston, Rossiya, AQSh va Shveytsariya normativ tajribasini tahlil qilgan holda, raqamli mulkning turlicha talqin qilinishi uni huquqiy muomalaga to'liq kiritishni murakkablashtirayotganini asoslaydi. Shuningdek, O'zbekistonning "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi va 2018-yil 3-iyuldagi Prezident qarori mazmunidan kelib chiqib, mamlakatda kripto-aktivlar mulkiy huquq sifatida tan olinayotgani, biroq ushbu sohada huquqiy mexanizmlar to'liq shakllanmagani yoritiladi. Muallif raqamli mulkning gibridd – moddiy bo'lmagan, lekin qiymatga ega bo'lgan obyekt sifatidagi xususiyati sabab fuqarolik huquqi tizimiga integratsiyalash jarayonida ko'plab konseptual va amaliy muammolar mavjudligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Raqamli mulk, fuqarolik huquqi obyektlari, kripto-aktivlar, kriptovalyuta, mulkiy huquqlar, huquqiy tartibga solish, intellektual mulk, raqamli aktivlarning tasnifi.

Dunyo o'zgargani sari ko'plab huquq sohalari, ularning doirasi ham tobora o'zgarib, za'monaviy tusga kirib bormoqda. Albatta, bu o'zgarish xalqaro xususiy huquqni ham cheklab o'tmayabdi. Hozirgi kunda raqamli mulkka doir ko'plab

qarashlar mavjud bo‘lib, uni fuqarolik huquqiy munosabat obyektimi, uni shaxsiy mulk sifatida tan olish yoki meros masalasi kabi savollar muhoka qilinmoqda. Raqamli mulk o‘z nomi bilan raqamli shaklda bo‘ladigan, bir so‘z bilan aytganda uning shakli elektron tusga ega bo‘ladi. Raqamli mulkning bir nech xil turlari mavjud biroq uning doirasi aniq belgilab qo‘yilgan emas. Ushbu soha rivojlangani sari uni fuqarolik huquqi obyektiga kirishi yoki kirmasligi bo‘yicha ko‘plab savollar tug‘ilmoqda, lekin ayrim horijiy mamlakatlar allaqachon uni qonuniy tusga kiritib, fuqarolik huquqining to‘laqonli obyekt sifatida tan olib ulgurgan. Biz raqamli mulk turlariga kripto aktivlarni yoki kriptovalyutalarni, raqamli san’at asarlari, grafikalar, metaversiyadagi obyektlar, onlayn o‘yindagi virtual buyumlar, domen nomlari, raqamli identifikatorlar, onlayn hisoblar, raqamli xizmatlar kabilarni misol keltirish mumkin. Ular milliy qonunchiligimiz bo‘yicha fuqarolik huquqi obyekt deb aniq belgilab qo‘yilgan bo‘lmasada, biroq bu masaladagi ishlar albatta fuqarolik ishlari sirasida ko‘rib kelinmoqda. Shuningdek, fuqarolik kodeksimiz 81-moddasiga muvofiq, “fuqarolik huquqlarining obyektlariga ashyolar, shu jumladan pul va qimmatli qog‘ozlar, boshqa buyumlar, mol-mulk, shu jumladan mulkiy huquqlar, ishlar va xizmatlar, ixtirolar, sanoat namunalari, fan, adabiyot, san’at asarlari va intellektual faoliyatning boshqa natijalari, shuningdek shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa moddiy hamda nomoddiy boyliklar kirishi” belgilangan. Bundan ko‘rinib turibdiki, raqamli mulklarni ham fuqarolik huquqi obyekt deya sanasak ham bo‘ladi. Bu borada ko‘plab olimlar fikr yuritgan. Ular o‘z maqolalarida so‘nggi paytlarda fuqarolik muomilasida bo‘lgan yangi obyektlar, jumladan raqamli aktivlar paydo bo‘lganini, dunyoni jadal raqamlashtirish va internet makoniga jalb etishning kuchayishi sharoitida biz yangi texnologiyalardan foydalanish natijasida yuzaga keladigan obyektlarni huquqiy

jihatdan mustahkamlash zaruratiga duch kelyotganimizni ta'kidlashgan. Yana shuni aytish joizki, dasturiy ta'minot intellektual faoliyat ijodiy natijasi bo'lib, fuqarolik muomilasiga kirishi haqida fikr yuritishgan. Binobarin, elektron pullar bilan bir qatorda raqamli pullar ham naqd pulsiz pul turi hisoblanadi. Raqamli mulkning huquqiy munosabatlar obyekti bo'lish yo bo'lmasligi borasida olimlar fikr mulohazalari mavjud. Xususan, E.N.Trubetskoy insonning tashqi erkinligi doirasiga kirishi mumkin bo'lgan, unga tegishli bo'lgan hamda uning hatti-xarakatlari natijasida vujudga kelgan moddiy dunyo obyektlari faqat obyekt sanaladi degan. Zamonaviy olimlarning aksariyati huquq obyekti talqinini huquq nazariyasida qabul qilingan holatda bo'lishini ta'kidlaydi. Jumladan, odatda huquq va huquqiy munosabatlar tizimi obyektlariga quyidagilar kiradi: moddiy ne'matlar (moddiy dunyo predmetlari); nomoddiy ne'matlar (shaxsga daxldor nomulkiy va boshqa ijtimoiy ne'matlar); insonlarning intellektual-ma'naviy ijodiy faoliyati natijalari (mualliflik huquqi obyektlari); hujjatlar (pasport, guvohnoma, tasdiqlovchi hujjatlar va boshqalar). Bular huquqiy munosabat obyektlariga misol tariqasida keltiriladi. Qolaversa, ba'zi olimlar huquqiy munosabat obyekti sifatida quyidagilarni ko'rsatadilar: 1) ishtirokchilarning real xatti-harakati; 2) moddiy va ma'naviy ne'matlar, ular orqali manfaatlar qondiriladi; 3) ijtimoiy munosabatlarning o'zi (huquqiy munosabat predmeti sifatida moddiy yoki nomoddiy ne'matlar ham, ishtirokchilar xatti-harakati ham xizmat qilishi mumkin); 4) moddiy ne'matlar; 5) ijodiy faoliyat mahsullari; 6) nomulkiy shaxsiy ne'matlar; 7) harakatlar (harakatsizlik va uning natijalari); 8) moddiy ne'matlar va mulkiy huquqlar; 9) real ne'mat, unga qaratilgan subyektiv huquq va yuridik majburiyatlar; 10) ijtimoiy, moddiy, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy ne'matlar. Qo'shni Qozog'iston Respublikasi davlati fuqarolik kodeksiga raqamli mulk

tushunchasi ham kiritilgan ekan. Unda fuqarolik huquqi obyektlari mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarga bo'linishi, ayni mulkiy ne'matlar sirasiga ashyo, pul, xorijiy valyuta, ishlar va xizmatlar, tovar belgilar, firma nomlari hamda raqamli mulk kabilarni ham kirishini belgilab qo'ygan. Bundan ko'rinib turibdiki, raqamli mulk Qozog'iston Respublikasi davlatida to'laqonli fuqarolik huquqiy munosabat obyekti sanalar ekan. Bugungi kunda ko'plab xorijiy davlatlarning ko'pi allaqachon fuqarolik huquqining bir qismiga kiritishga ulgurgan. Xususan, Rossiya Federatsiyasi fuqarolik qonunchiligida fuqarolik huquqlari obyektlari sifatida ashyo (naqd pul va hujjatli qimmatli qog'ozlar bilan birga), boshqa mulk, jumladan mulkiy huquqlar (naqd pulsiz mablag'lar, hujjatsiz qimmatli qog'ozlar, raqamli huquqlar), ishlar bajarilishi va xizmatlar ko'rsatilishi, intellektual faoliyatning muhofaza qilinadigan natijalari va ularga tenglashtirilgan individuallashtirish vositalari (intellektual mulk), nomoddiy ne'matlar e'tirof etiladi (RF FK 128-modda)¹. Raqamli aktivlarning, jumladan kriptovalyutalar, stabilkoinlar va tokenlashtirilgan qimmatli qog'ozlarning ko'payishi global moliyada tobora ko'proq asosiy oqimga aylanib borayotganligi sababli, bunday raqamli aktivlarga nisbatan mulkiy huquqlarni tartibga soluvchi qonunchilik asoslari Amerika Qo'shma Shtatlarida yanada takomillasha boshladi. Ushbu davlat Yagona Huquq Komissiyasi (ULC) va Amerika huquq instituti Yagona tijorat kodeksiga raqamli mulk bilan bog'liq asosiy qo'shimcha va o'zgarishlar kiritilgan. Shveytsariyada kriptovalyutalar qonuniy to'lov vositasi sifatida tasniflanmaydi. Binobarin, kriptovalyutalar tor ma'noda "pul" hisoblanmaydi lekin taqiq ham qo'yilmagan. Ba'zi huquqshunos olimlarning ta'kidlashicha, kriptovalyutalar, agar ular keng qo'llanilsa, jamoatchilik tomonidan qabul qilingan va pulning odatiy

¹ Moroz.S.P. Raqamli aktivlar fuqarolik huquqi obyekti sifatida// Vestnik Karagandinskovo univesitet jurnali.(Qozog'iston)-2023-yil.No:105. 95-96-bet.
SJIF: 5.051

funksiyalarini qabul qilgan bo'lsa, kengroq ma'noda "pul" sifatida tavsiflanadi. Masalan, Digitec Galaxus onlayn-riteylari 2019-yil mart oyida Datatrans AG va Coinify bilan hamkorlikda kriptovalyutalardan to'lov usuli sifatida foydalanishga birinchi urinishlarini boshladi. Mijozlar o'zlarining xaridlari uchun to'lov vositasi sifatida Bitcoin, Ether, Ripple (XRP), Binance Coin, Litecoin, TRON, NEO va OmiseGO kabi kriptovalyutalardan foydalanishlari mumkin edi. Shveytsariyaning markaziy banki bo'lgan Shveytsariya Milliy banki raqamli tokenlardan potentsial foydalanishni tan oladi va tegishli bozor va texnik o'zgarishlarni yaqindan kuzatishda davom etadi. Biroq ushbu bank hech qanday kriptovalyuta chiqarmagan. Shveytsariyada kriptovalyutaning o'sib borayotgan dolzarbligi banklar tomonidan kriptovalyutani qo'llab-quvvatlashda ham namoyon bo'ladi. Masalan, PostFinance Shveytsariyadagi birinchi tizimli muhim bank bo'lib, o'z mijozlariga raqamli mulklarini saqlash yoki tejash rejalarini tuzish uchun 11 xil kriptovalyutalarni taklif qildi. Shveytsariya qonunchiligiga ko'ra, qimmatli qog'ozlar (Effekten) moliyaviy vositalar bo'lib, ular: (i) standartlashtirilgan; (ii) ommaviy savdo uchun mos; va (iii) sertifikatlangan qimmatli qog'ozlar (Wertpapiere), sertifikatsiz qimmatli qog'ozlar (Wertrechte), derivativlar yoki vositachi qimmatli qog'ozlar (Bucheffekten) sanaladi. Tokenlar qimmatli qog'ozlar sifatida aniq tasniflanadimi yoki yo'q, ya'ni bu savol bo'yicha na qonuniy yo'l-yo'riq va na sud amaliyoti mavjud². Guvohi bo'lganimizdek, bu yo'nalish hali to'liq o'z tavsifiga va huquqiy yechimicha ega bo'lganicha yo'q. U tobora rivojlanib ko'plab mamlakatlarning qonun hujjatlarida o'z aksini

² Blockchain & Cryptocurrency Laws 2026 | Switzerland

This article focuses on cryptocurrency laws in Switzerland, covering sales regulation, licensing, reporting requirements, border restrictions, and more.

https://www.globallegalinsights.com/practice-areas/blockchain-cryptocurrency-laws-and-regulations/switzerland/?utm_source=chatgpt.com.

topmoqda. Odamlarning raqamli valyutaga bo'lgan qiziqishi tobora ortib bormoqda. Butun dunyo bo'ylab 562 million kishi kriptovalyutaga ega bo'lib, bu dunyo aholisining 6,8 foizini tashkil qiladi³. Shunga qaramay, aksariyat mamlakatlarda kriptovalyutaning maxsus qonunlari hali ham mavjud emas va ushbu yo'nalish boshqacha yondashuvlarni talab qiladi. Uni qonuniylashtirishdagi asosiy muammolardan biri u anonimlikni talab qilishidir. To'g'ri anonimlik foydali sifat deya eshitilsa ham pul yuvish, terrorizmni moliyalashtirish, moliyaviy firibgarlik kabi jinoyatlarning vositasi bo'lish xavfi ham mavjud. Hozirda raqamli mulk bilan bog'liq juda ko'p muammolar mavjud. Bularga huquqiy aniqlikning yetishmasligi ya'ni ko'plab davlatlarda aniq bir qonun bilan tartibga solinmaganligi, xalqaro darajada ham tartibga solishning aniq bir doirasi mavjud emasligi, shaxsiy va xavfsizlik masalalari, uni meros qoldirish qoldirish yoki topshirish masalasining ochiqligi, raqamli mulk daromad keltirsada ammo soliq va moliyaviy nazoratning aniq bir mexanizmi yo'qligini.

Moddiy va an'anaviy mulk aktivlar, raqamli mulk yurisdiktsion chegara bilmaydi, an'anaviy mulk, shartnoma va javobgarlik normalarini qo'llashni murakkablashtiradi. Raqamli mulklar uchun umumiy qabul qilingan huquqiy klassifikatsiyaning yo'qligi ilmiy munozaralar va sud amaliyotida qarama-qarshi talqinlarga olib keldi. Ba'zi yurisdiktsiyalar ularni tovar sifatida, boshqalari qimmatli qog'ozlar yoki moddiy bo'lmagan mulk sifatida tasniflaydi, ayrimlari esa noaniq pozitsiyada qoladi. Ushbu turlicha yondashuvlar raqamli mulklarni yaratish, savdo qilish va ishlatishda tomonlarni himoya qilish hamda ularning huquqiy muomalasini muvofiqlashtirish uchun keng qamrovli fuqarolik huquqi nuqtai nazarini talab qiladi. Raqamli mulklar gibrid tabiati bilan ajralib turadi: ular

³ What is the cryptocurrency regulation status around the world. <https://ondato.com/blog/cryptocurrency-regulation/>.
SJIF: 5.051

ham almashuv vositasi, ham shartnoma huquqlari sifatida faoliyat yuritadi. Ular qiymatni ifodalay oladi, masalan, valyuta yoki tovarlar kabi. Shu bilan birga, ular egalariga ma'lum huquqlarni, masalan, xizmatlardan foydalanish yoki ovoz berish huquqlarini berishi mumkin. Ushbu ikki qirrali xususiyatlar ularning fuqarolik huquqi doirasida tasnifini murakkablashtiradi. O'zbekistonning "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasi mamlakatda raqamli transformatsiyani rivojlantirishga qaratilgan. Strategiya raqamli infratuzilmani rivojlantirish, elektron hukumat xizmatlarini takomillashtirish va axborot texnologiyalari ta'limini rivojlantirishga e'tibor qaratadi. Ushbu strategiya Yangi Taraqqiyot Strategiyasi 2030 doirasida amalga oshiriladi va mamlakatning YaIMini ikki baravar oshirish hamda o'rta daromadli yuqori mamlakatlar qatoriga kirishni maqsad qiladi. O'zbekiston hukumati ushbu transformatsiyada kripto-aktivlar va raqamli moliyaviy tizimlarning ahamiyatini alohida ta'kidlagan⁴. Muhim qarorlardan biri, 2018 yil 3 iyuldagi, "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida prezident qarori. Qaror ushbu sohaning muhim elementlarini o'z ichiga olgan bo'lib, kripto-aktivlar bo'yicha faoliyat va ma'lumotlarning taqsimlangan reyestri texnologiyalari sohasida xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni har tomonlama rivojlantirish, raqamli iqtisodiyotda loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun ma'lumotlarning taqsimlangan reyestri texnologiyalarini ishlab chiqish sohasida faoliyat ko'rsatadigan yuqori malakali xorijlik mutaxassislarni jalb qilish, raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish sohasida davlat organlari va tadbirkorlik subyektlarining yaqin hamkorligini ta'minlash kabilarni o'z ichiga oladi. Ushbu qarorda kripto-

⁴ Pulatov.T. Raqamli moliyaviy aktivlar fuqarolik huquqi obyekti sifatida // Uzbek Journal of Law and Digital policy. -2024. <https://irshadjournals.com/index.php/ujldp/article/view/245/207>.
SJIF: 5.051

aktiv mulkiy huquq hisoblanib, ma'lumotlarning taqsimlangan reyestridagi raqamli yozuvlar yig'indisi bo'lgan qiymati va egasiga ega deb ko'rsatib o'tgan. Bu soha rivojlanib tobora keng ko'lamli tusga kirib bormoqda. Bu esa o'z o'zidan huquqiy asosni ishlab chiqish, yangi normalar yaratish, u bilan bog'liq jinoyatni oldini olish kabi ma'suliyatli vazifani yuklamoqda. Hozirda raqamli mulkni fuqarolik huquqiy munosabat obyekti sifatida tan olgan davlatlar talaygina. Davlatimiz ham bu borada ko'plab qonun normalari yaratmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi yangi turdagi obyektlarning fuqarolik muomalasiga kirib kelishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur obyektlar – kripto-aktivlar, NFTlar, raqamli xizmatlar, metaversiya aktivlari va boshqa raqamli mulklar — an'anaviy mulkdan tubdan farq qilgan gibrid xususiyatga ega bo'lib, ularni huquqiy jihatdan aniq tasniflash dolzarb masalaga aylangan. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ayrim davlatlar raqamli mulkni to'laqonli fuqarolik huquqi obyekti sifatida tan olib, uni mulkiy huquqlar doirasida tartibga solmoqda. O'zbekistonda ham kripto-aktivlar mulkiy huquq sifatida e'tirof etilgan bo'lsa-da, ularning huquqiy muomalasi bo'yicha maxsus va kompleks tartibot hali to'liq shakllanmagan.

Raqamli mulkning anonimlik, transchegaraviy xarakteri, xavfsizlik va meros masalalari uni tartibga solishni murakkablashtiradi. Shu sababli, fuqarolik huquqi nazariyasida raqamli mulkning o'rnini aniqlash, uni umumiy huquqiy obyektlar tasnifiga integratsiya qilish va yangi normativ mexanizmlarni ishlab chiqish muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Mazkur maqola shuni ko'rsatadiki, raqamli mulk o'zining mulkiy qiymati, huquq va manfaatlarga bog'liqligi, iqtisodiy muomaladagi faolligi sabab fuqarolik huquqi obyekti sifatida e'tirof etilishi mumkin va bu jarayon amaliy ehtiyojlar bilan bevosita bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Moroz.S.P. Raqamli aktivlar fuqarolik huquqi obyektı sifatida// Vestnik Karagandinskovo univesitet jurnali.(Qozog'iston)-2023-yil.No:105. 95-96-bet.
2. Blockchain & Cryptocurrency Laws 2026 | Switzerland
3. This article focuses on cryptocurrency laws in Switzerland, covering sales regulation, licensing, reporting requirements, border restrictions, and more.
4. https://www.globallegalinsights.com/practice-areas/blockchain-cryptocurrency-laws-and-regulations/switzerland/?utm_source=chatgpt.com.
5. What is the cryptocurrency regulation status around the world.
<https://ondato.com/blog/cryptocurrency-regulation/>.
6. Pulatov.T. Raqamli moliyaviy aktivlar fuqarolik huquqi obyektı sifatida // Uzbek Journal of Law and Digital policy. -2024.
<https://irshadjournals.com/index.php/ujldp/article/view/245/207>.